YOSH AVLODNI QANDAY QILIB YUKSAK MA’NAVIYATLI SHAXS QILIB TARBIYALASH MUMKIN?

Asliddin Xolboev,

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimi elemantlari, ta’lim jarayonlari va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi qonuniyatlar hamda ta’lim jarayonini innovatsion rivojlantirishning tahlili, yuksak ma’naviyat haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, inson, davlat, ma’naviyat, jamiyat, innovatsiya, ob’ekt, sub’ekt, g‘oya, qonuniyat, tizim, jarayon, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, substansiya, metodologiya, prinsip, mezon.

Bugungi kunda ta’lim – tarbiya jarayonlarini samarali tashkil qilishda, buyuk ota – bobolarimizning ma’naviy me’roslaridan foydalanish maqsadga muoffiqdir. Ularning yosh avlod tarbiyasi borasidagi jami sa’yi – harakatlari taxsinga sazovordir. Shuning uchun ham yoshlar o‘rtasida bunyodkor g‘oyalarni targ‘ib qilishda ibrat – namuna tizimini yanada jonlantirish bugungi kunda muxim axamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasini shakllantirishni dolzarb deb hisoblaymiz.

Bunday dolzarb muammolar yechimini oila , ta’lim muassasalari va maxalla faoliyati uyg‘unligida olib borishni yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshirisa bo‘ladi. Buning uchun Xalqimiz ma’naviyatining tarixiy ildizlariga e’tiborni qaratish kerak. Bunda ona zaminda yaratilgan ijod namunalari muxim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asosan, qadimgi tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlar va dostonlarga, ya’ni xalq og‘zaki ijodi, xalq amaliy sa’nati, xalq harakatli o‘yinlariga borib taqaladi. Misol uchun hammamiz sevib o‘qiydigan Spitamen, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, To‘maris va Shiroq to‘g‘risidagi rivoyat va dostonlar yosh avlodni vatanparvarlik, mardlik, do‘stlik, sadoqat, vafo, vatanning mustaqil, ozod kelajagi parloq bo‘lishi uchun fidoiylik ko‘rsatishga chorlaydi, da’vat etadi.

Yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashda millliy ma’naviyatimizning tarixiy ildizlari muxim axamiyat kasb etadi 1) ma’naviyatning shakllanishi, tarixiy taraqqiyot jarayonida tadrijiy tarzda takomillashuvi, insoniyat hayoti va ijtimoiy munosabatlarida qaror topib borishi va namoyon bo‘lishi; 2) ma’naviyatning har bir davr va sharoitda ijtimoiy turmush talab-ehtiyojlarini o‘zida ifoda etgan g‘oyaviy kuch sifatida yangilanib, ijtimoiy taraqqiyotning kundalik talablariga moslashgan holda namoyon bo‘lishini ifodalovchi tushuncha. Kishilik jamiyati tarixida ma’naviyatning zamonaviylashuvi “modern” deyiladi. Shu ma’noda, ma’naviyat insonning o‘zligini anglashi bilan boshlangan va doimo sodir bo‘ladigan ma’naviy komillik sari intilishidir. Bu hol har bir tarixiy davrda xalq va millatning o‘ziga xos ma’naviyatining shakllanishiga olib keladi. Ma’naviyatning tadrijiy taraqqiyotini mutaxassislar tomonidan davrlashtirishning quyidagi umumiy tamoyili qabul qilingan: 1. Qadimgi ma’naviy taraqqiyot. 2. O‘rta asrlar davri manaviyati. 3. Yangi davr ma’naviyati. 4. Bugungi istiqlol davridagi ma’naviy jarayonlar va o‘zgarishlar bu sohadagi zamonaviylikni ifodalaydi. Ma’naviyatning takomil bosqichlari shartli bo‘lsa-da, ular orasida o‘zaro aloqadorlik va vorisiylik mavjudki, har bir davrda ma’naviyat kishilik jamiyati taraqqiyotini taminlashga xizmat qilgan va avloddan avlodga eng ilg‘or g‘oya va odat, marosimlarni meros qoldirgan “Avesto” va zardushtiylik davri qadimgi odamlar ma’naviyatida animizm, fetishizm, totemizm, magiya kabi qabilaviy dinlarga xos jihatlarni o‘zida mujassam etadi. O‘sha zamon qadriyatlari xalq og‘zaki ijodi, afsona va rivoyatlarda, dehqonchilik va chorvachilik an’analarida, urf-o. va rasm-rusumlarida o‘z aksini topgan ma’naviyat shakllari tarzida namoyon bo‘ladi. Bu davr ma’naviyati keyinroq milliy va jahon dinlari, ilm-fan, adabiyot va san’at rivoji uchun asos bo‘lgan. Bu esa keyinroq yangi davr jahon ma’naviyatining yuksak taraqqiyotini taminladi. Shu tariqa ma’naviyat jarayonlari vujudga keldiki, ushbu jihat bugungi milliy ma’naviyatimizning shakllanishida hamda uning takomil bosqichida ajdodlarimiz merosining o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatadi. Ma’naviyat bilan bog‘liq qonuniyat shundan iboratki, ijtimoiy - tarixiy taraqqiyot natijasida ma’naviyatning shakllari muayyan xalq tomonidan yaratilib, tarixning

har bir bosqichida ajdodlar qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarning ijobiy qirralari bilan boyitilib, avloddan avlodga uzatiluvchi qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Masalan o‘rta asrlarda Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari buyuk daholar tomonidan yaratilgan ma’naviyat namunalari, shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi allomalarning islomiy qadriyatlar mag‘zi bilan yo‘g‘rilgan ma’naviy meroslari mintaqa xalqlari tafakkurining shakllanishi va riv-shida taraqqiyotimiz poydevoriga muhim manba bo‘ldi. Xalqimiz ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida bugun biz yashayotgan zaminda asta-sekin taqdirning zalvorli sinovlariga dosh berib, o‘z ma’naviy borlig‘ini namoyon eta olgan. Uning shakllanish jarayoni insoniyatning eng qadimiy davriga borib taqaladi.

Yoshlarni yuksak ma’naviy ruxda tarbiyalashda biz ota – booblarimiz tomonidan yaratilgan falsafiy, ilmiy va baddiy asarlarga murojaat qilishimiz uchun avvalom bor bo‘lajak o‘qituvchilarningn o‘zini unga tayyorlashimiz kerak. Biz yosh avlodga faxr va iftixor bilan shuni tushunti rishimiz kerakki, buyuk allomalarimiz naqaqat musulmon olamiga va madaniyatining rivojlanishiga, balki butun dunyoning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Misol uchun, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi qomusiy olimlarimiz , al-Buxoriy, at-Termiziy, Marg‘inoniy, Zamahshariy, Nasafiy, Najmiddin Kubro, Naqshband kabi din peshvolari, ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi shoir, davlat arboblarining badddiy asarlari jahon sivilizatsiyasiga kattta ta’sir ko‘rsatgan.

Milodning VIII – IX asrlariga kelib ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu davrda madaniy yuk salish, ilm-fan hamda adabiyotningkerakli darajada taraqqiy etishi uchun imkoniyat yaratib bergan desak xato bo‘lmaydi. O‘sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850) xalifa Ma’mun tashkil qilgan «Baytul hikma»da katta mavqega ega bo‘lganligini yaxti bilakmiz.

Muhammad Muso al-Xorazmiy tomonidan olg‘a surgan g‘oyalarda yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyaviy axamiyati yoritilgan.

Bugungi kunda yoshlarni yukask ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashda Xorazmiyning quyidagi o‘gitlariga aloxida to‘xtalib o‘tishimiz maqsadga muoffiqdir. «O‘tmish davrlarda o‘tgan olimlar fanning turli tarmoqlarida asarlar yozish bilan o‘zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar. Ulardan biri o‘zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi, uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi… o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi». Bnday bebaxo falsafiy qarashlar, butun insoniyat olamining yuksalishida umumiy talab, kamolot mezoni sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Abu Nasr Forobiy (873-959) ham insoniyatni ma’nan kamol toptirishga katta e’tibor bergan. Forobiyning inson ma’naviyatga oid qarashlari «Madinatul fozila» ta’limotida o‘z ifodasini topgan. Alloma fozil jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotida yuksak g‘oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan yuksak ma’naviy mezonlar tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda din va huquq ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etib, unda boshqaruvni faylasuf-hukmdorlar amalga oshirishini ta’kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g‘oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o‘sha davrda, nafaqat Alloh g‘oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan ma’naviyat va falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida talqin etgan. Shuning uchun ham dastlabki Sharq faylasuflaridandir. Ma’naviyat mavzusini Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ham chetlab o‘tmagan. Uning fikricha, ma’naviyatning vujudga kelishi ijtimoiy munosabat lar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan. Masalan, kishilar o‘rtasidagi hamkorlik odamlarning birlashish ehtiyojlari ko‘pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o‘zini himoya qilish zarurati tufayli vujudga

kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakaktlararo madaniy-ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirishning tarafdori edi. Shu bilan birga, u bosqinchilarning yurtimiz madaniy yodgorliklarini yo‘qotish sohasidagi siyosatini qoralaydi, madaniy soxada rivojlanishga erishishning muxim axamiyatlarini ta’kidlaydi.

Jahon madaniyatiga bebaho hissa qo‘shgan Hofiz, Sa’diy, Jomiy, Navoiy kabi buyuk allomolarning yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasiga oid qarashlari ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ularning butun jahonga mashhur bo‘lgan «Saodatnoma», «Guliston» va «Bo‘ston», «Bahoriston», «Xamsa» kabi bebaho asarlari jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Yuksak ma’naviy –axloqni targ‘ib qiladigan asarlar butun dunyo adabiyotida juda kam uchraydi . Yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasiga oid an’ana yurtimiz madaniyati tarixida aslo to‘xtab qolmaganligi xaklni o‘zi bu boradagi ishlarning izchilligidag dalolat beradi. A. Donishning «O‘g‘illarga nasihat» (XIX a. oxiri), A. Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» (XIX a. boshlari) islom karimovning “ Yuks ak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarini eslash kifoya. Unda “Butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug‘ avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo‘yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta’riflab kelishida teran ma’no bor. Uning «Diling Ollohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma’no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi.Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya’ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo — Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Imom Moturidiy bobomizning o‘rta asrlardagi g‘oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, avlodlarga ibrat bo‘ladigan ma’naviy jasorat namunasini ko‘rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi. [4]

O‘rta asrlar Amir Temur va temuriylar davrining, umumbashariy ma’naviyatga qo‘shgan hissasini aloxida ta’kidlash maqsadga muoffiqdir. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning ma’naviyati, xulqi, axloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish san’ati bayon qilingan «Temur tuzuklari»da ijtimoiy - siyosiy masalalar bilan birga ma’naviyat masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Ushbu asar Sharq va G‘arbda mashhur bo‘lgan, ko‘p marta chop etilgan. Unda siyosatdonning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qo‘shin, ulamolar, arkoni davlat va boshqalarga munosabati uchun asosiy mezon bo‘ladigan ma’naviyat tamoyillari o‘sha zamon nuqtai nazaridan bayon qilingan. Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan buyuk imperiya – bir tomondan, milliy davlatchilikning real hayotdagi ifodasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u yuksak ma’naviyatning rivojlanishiga juda katta zamin yaratib berdi. Bugungi kunda biz, yosh avlodni yuksak ma’naviy shaxs darajasiga olib chiqish dasturi ustida ishlar ekanmiz, ulardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishimiz maqsadga muoffiq bo‘ladi.

Qadimdan ota - bobolarimiz ezgu g‘oyalarga, ma’naviy merosga, an’analar va zamonaviy talablarga asoslanmagan har qanday davlat tizimi uzoqqa bormasligini yaxshi anglagan xolda ish olib borgan. Shuning uchun ham bu buyuk o‘lkada ota – bobolar ma’naviyatiga asoslangan mustaqqil, demokratik davlat o‘z faoliyatini boshlab, 25 yil ichida misli ko‘rilmagan, erishilishi qiyin bo‘lgan yutiqlarni qo‘lga kiritdi. Shu bilan birga, u muayyan vaqt talab etadigan, asta-sekinlik bilan shakllanib boradigan murakkab tarixiy jarayondir. Sharq milliy davlatchiligida axloq, ma’naviyat, komillik va adolat asosiy mezon qilib olingan. Insonparvarlik, ezgulikni himoya qilish, madani yatini rivojlantirish hamma vaqt, har qanday sharoitda ham muhim soha sifatida qaralgan. Shuning uchun ham aynan ana shu zaminda insoniyat tarixida burilish yasagan va katta ahamiyatga ega bo‘lgan ulkan ma’naviyat yaratilib, avloddan avlodga uzatilib, boyitib va takomillashtirib kelingan. O‘zbek davlatchiligi va qonunchiligi tarixi juda boy va qadimiy bo‘lib, u miloddan avvalgi 3-4 minginchi yillardayoq shakllangan. Tabiiyki, davlatchilik qaror topgan joyda uning o‘ziga xos ehtiyojlaridan kelib

chiqqan qonunchiligi, tartib va tamoyillari ham vujudga keladi. Bu jarayon ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida xalq dunyoqarashi, ma’naviy -ruhiy ehtiyoji bilan birga mavjud axloqiy qoidalar, demakki, ma’naviy tamoyillar bilan uyg‘unlashib ketgan. Amir Temurning tariximizdagi o‘rni va mamlakatni ozod qilishdagi xizmati katta. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o‘git va nasihatlari keyingi davrning siyosiy arboblari uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgani shubhasiz. “**Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan «Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar» degan maqolga hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir** («Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, 45-b.).

Imom Burxoniddin Marg‘inoniyning 53 kitobdan iborat "Hidoya" asari ma’naviyatimizning tarixiy asoslari orasida alohida o‘rin tutadi. Mazkur asardan o‘rin olgan fikh ilmi — huquqshunoslikka doir qator ko‘rsatmalar, qonunlar, xulosalar va fikrlar bu fikrni yaqqol isbotlaydi. Keyinroq butun Sharq davlatchiligi ayni shu qonuniyatlarga tayanib, boshqaruv usullarini joriy qilganligi ham xalqimiz ma’naviyatining tarixiyligini ko‘rsatuvchi omildir. Sohibqiron Amir Temur ham ana shunday an’anaviylik asosida o‘z davlatida nihoyatda aniq va hayotiy qonunchilikni joriy etib, ma’naviy masalalarga asosiy e’tibor qaratgani bejiz emas. Amir Temurning markazlashgan davlat va millat qudratini yuksaltirish uchun ma’naviyat va adolatga asoslangan saltanatga asos solishi, Mirzo Ulug‘bekning fan va madaniyat ravnaqi, Alisher Navoiyning adabiyot va san’at, ilm va hunar ahliga rahnamoligi, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa temuriyzodalarning turli din va mazhabdagi xalqlarni birlashtirib, insonparvar jamiyatni vujudga keltirish yo‘lidagi tajribalari bugungi kunda faxr hissini uyg‘otadi. Buyuk ajdodlarimiz yashagan bu ko‘hna zaminda qadim-qadimdan buyon hur fikr qadrlanganligi, fan va madaniyatt, adabiyot va san’atning naqadar ravnaq topganida yaqqol ko‘rish mumkin. Fikr erkinligi tufayli buyuk ajdodlarimiz jahonshumul asarlar yaratganlar. Ular qoldirgan meros, jamiyat a’zolari ma’naviyatini yuksaltirish bilan bog‘liq intilish va harakatlar tarixiy

taraqqiyot jarayonida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bular albatta, ma’naviyatning tarixiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ana shu tarixiy asoslarni nazarda tutib Davlatimizninrg Birinchi Prezidenti Islom Karimov: “**Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurishga tatbiq etmog‘imiz kerak**”, - degan g‘oyani ilgari surgan edi. Tabiiyki, ushbu g‘oya bugungi taraqqiyotimizning bosh mazmunini belgilaydiki, bunda ma’naviy omillarning ustuvorligi hamda uning tarixiyligi va zamonaviyligi tamoyillari yetakchi o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T. O‘zbekiston, 1992. - 43 b.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekistan taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

3. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi, o‘zbekiston sharoitada uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.:«Iqtisodiyot» 2009y

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma’naviyat”. 2008 y 173 bet